

O'ZBEK MILLATINING QALBIDA VA JAHON ADABIYOTIDA PORLAGAN YULDUZ: ALEKSANDR FAYNBERG

Karimbayeva Mardona Ravshanbekovna

Ingliz tili 3-fakulteti talabasi

Ilmiy maslahatchi: Mamatkulova Fotima Ashirkulovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Abstrakt: Mazkur tezis zamonaviy o'zbek adabiy hayotida muhim o'rin tutgan, milliy va jahon adabiyoti ko'prigi bo'lgan Aleksandr Arkadyevich Faynbergning hayoti va ijodiga bag'ishlangan. Muallif Faynbergning Toshkentda tug'ilib, bolalik xotiralari, ona mehriga bo'lgan sadoqati va shoirlik ruhiyati haqida chuqur to'xtalib o'tadi. Uning she'riyatida o'zbekona mehr, samimiyat va milliylikning o'ziga xos namoyon bo'lishi yuksak baholanadi. Shuningdek, Faynbergning ijodiy yutuqlari, adabiyot va tarjima sohasidagi xizmatlari, milliy va xalqaro mukofotlari haqida atroflicha ma'lumot beriladi. Toshkentdagi Alisher Navoiy bog'ida shoir xotirasiga o'rnatilgan haykal esa uning o'zbek xalqining qalbidagi unutilmas o'rnini ifodalaydi. Maqola orqali adabiyot va milliy ruh uyg'unligining betakror namunasi sifatida Faynberg siymosi yuksak ehtirom bilan tasvirlangan.

Kalit so'zlar: Aleksandr Faynberg, she'riyat, milliy ruh, ona mehr-muhabbati, adabiy meros, tarjima, yurtga muhabbat;

Abstract. This article is dedicated to the life and creative work of Aleksandr Arkadyevich Faynberg, a prominent figure in contemporary Uzbek literary life and a symbolic bridge between national and world literature. The author explores Faynberg's childhood memories rooted in Tashkent, his deep devotion to his mother, and the emotional essence of his poetry. Although written in Russian, his poems reflect deep Uzbek sincerity, affection, and cultural spirit. The article highlights Faynberg's literary achievements, his significant contributions to literature and translation, as well as his national and international recognitions. The bronze statue in his memory located in Alisher Navoi Park in Tashkent serves as a symbolic representation of the poet's eternal place in the hearts of the Uzbek people. Through this article, Faynberg's image is portrayed with great reverence as a unique example of the harmony between literature and national spirit.

Key words: Aleksandr Faynberg, poetry, national spirit, maternal love and affection, literary heritage, world literature, translation, love for the homeland;

Adabiyot har bir millatning ruhiy dunyosini aks ettiradi. Aleksandr Arkadyevich Faynberg – XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida O'zbekiston adabiy hayotida o'chmas iz qoldirgan shoir, tarjimon va senariynavis sifatida tarixda muhrlandi. Uning ijodi nafaqat badiiy, balki ma'naviy va ma'rifiy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Aleksandr Faynberg 1939-yil 2-noyabrda

Toshkent shahrida tavallud topgan. Uning oilasi o'z davrining ziyolilaridan edi: otasi Arkadiy Lvovich muhandis, onasi Anastasiya Aleksandrovna esa mehnatkash va mehribon ayol bo'lgan. U o'z she'rlarida onasini ko'p bor madh etgan va bir she'rida shunday eslaydi:

Quvonch, qayg'u uchun, kimga shukur etay?
Qalbdagi uyimdan qaylarga ketay
Nastarinlar to'la devorlar, uylar
Darvozasiz hovli, azizdir ular,
Onam chaqirganda ha, hozir, derdim,
Lek, ko'proq qushlarning g'amini yerdim.
Tomning tunukasi qizib ketardi,
Qo'lim go'yo undan ko'kka yetardi
Falakka qo'nganda astagina shom,
Yulduzlar yog'dusi berganda orom,
Onam chaqirardi yana balkondan,
Kelyapman, onajon derdim yolg'ondan.
Bog'lanib qolgandim tomimga yomon,
Qirqda ham onam-chun bolaydim hamon
Abadiy bahorday barcha xushchaqchaq,
Hokisorim onam kutardi ilhaq

Bu jumlar naqadar sof va samimiy ruhda bitilgan. Unda shoir o'zining bolalik yillarini mehr-muhabbat bilan eslaydi, satrlardagi "nastarinlar to'la devorlar uylar", "darvozasiz hovli azizdir ular" kabi jumlar Aleksandr Faynbergning sof va haqiqiy o'zbek ruhida tarbiyalangan va sug'orilgan otashqalb shoirning his- tuyg'ularini namoyon qiladi.

Yosh Aleksandr bolaligidan kitobga, she'riyatga mehr qo'ygan. Maktabni tugatgach, topografiya texnikumida o'qidi, so'ngra Tojikistonda harbiy xizmatni o'tab keldi. Ijodga bo'lgan mehr uni Toshkent davlat universitetining filologiya fakulteti, jurnalistika bo'limiga olib bordi. U yerda sirtqi bo'limda tahsil olib, o'zining yozuvchi va tahrirchi sifatida rivojlanishiga zamin yaratdi. Faynbergning ilk she'rlari Toshkentdagi gazeta va jurnallarda bosilib chiqdi. Vaqt o'tishi bilan u o'z ovozi topdi. Uning she'rlari rus tilida yozilgan bo'lsa-da, ularning ruhida o'zbekona mehr-muhabbat, samimiyat va milliylik sezilib turadi. U 13 dan ortiq she'riy to'plamlar muallifi bo'lib, ularda inson ruhiyati, yurtga bolgan sevgi, tarix va zamon bilan bog'liq murakkab tuyg'ular o'z aksini topgan. Aleksandr Faynberg ijodi nafaqat o'zbek xalqining, balki xalqaro adabiy doiralar e'tiborini tortgan. U 2004-yilda O'zbekiston Respublikasi xalq shoiri unvoniga sazovor bo'lgan. 2008-yilda esa Rossiya Federatsiyasi Prezidenti tomonidan Pushkin medali bilan mukofotlangan. 2009-yil 14-oktabr kuni Toshkentda olamda otgan. Aleksandr Faynberg xotirasi bugungi kunda va bundan keyin ham tirik. Toshkentdagi Alisher Navoiy milliy bog'ida uning bronza haykali o'rnatilgan. Bu yodgorlik – shoirning xalq yuragidagi o'rnining va Ozbek xalqi samimiyatining ramzi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aleksandr Faynberg (2021). “Ishq degani bir qarashda tuyilar oson”, “ Ijod nashr”
2. Majidova Husniya, (2025). ALEKSANDR FAYNBERG-QALBI O‘ZBEK SHOIR. Xalqaro ilmiy tadqiqotlar jurnali , 10 (1), 338–340. <https://inlibrary.uz/index.php/ijsr/article/view/69270> dan olindi.
3. Abulkasimovna, E. Z., & Leonidovna, M. N. (2023, March). THE LEXICAL-SEMANTICAL USAGE OF PROFESSIONAL LEXEMES IN “UTGAN KUNLAR”(“ PAST DAYS”) BY ABDULLA QADIRI. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 20-22).
4. Hilola, X. (2025). INNOVATIVE APPROACHES AND ACQUISITION METHODS IN LANGUAGE LEARNING. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR, 1(7), 396-398.
5. Rashidova, G., & Fariza, N. (2024). THE RELATIONSHIP BETWEEN LANGUAGE AND CULTURE. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR*, 1(3), 93-95.
6. Xujaniyazova, H. (2024). YURIDIK RITORIKA DA MADANIYATNING AKS ETISHI. TAMADDUN NURI JURNALI, 6(57), 228-230.